

**XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO  
MAMALAKATLARI BILAN IKKI TOMONLAMA ALOQALARNING  
STRATEGIK AHAMIYATI**

*G'ofurov Ilyosbek Latibjon o'g'li - JIDU magistri*

**Annontatsiya:** Ushbu maqola Xitoy xalq Respublikasining yaqin sharq mamlakatlari bilan ikki tomonlama aloqalarning strategik ahamiyati haqida alohida ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq, jamiyat, davlat, O'zbekiston, hayot, adolat, erkinlik, xitoy, savdo-sotiq, hamkorlik, ustivorlik, manfaatdorlik, iqtisodiyot.

O'zbekiston xalqi rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishish, adolatli, erkin va farovon jamiyat qurishdek ulug' maqsadlar bilan yashamoqda. Shundan kelib chiqib, Shavkat Mirziyoyev o'tgan yilgi Prezident saylovida "Inson qadri uchun", "Davlat — inson uchun" degan g'oyalarni ilgari surgan edi. Ularni hayotga tatbiq etish maqsadida, aholining fikr va takliflari asosida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Unda yettita ustuvor yo'nalishlar qatorida "ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish" ham bor.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan ushbu keng miqyosli rejalar, yangi ishlar va tashabbuslarni amalga oshirish asosiy savdo hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, ulardan birinchisi – Xitoydir. Bugungi kunda davlatlararo munosabatlar ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Si Szin Pin o'rtasida o'rnatilgan ishonchli shaxsiy munosabatlarga asoslanadi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikka terrorizm, ekstremizm, separatizm, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlik sohasidagi boshqa tahdidlarga qarshi kurashish masalalari bo'yicha qarashlarning mos kelishi yoki yaqinligi yordam bermoqda.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi Savdo-iqtisodiy kelishuvga ko'ra, eng ko'p qulaylik rejimi o'rnatilgan. Buning samarasida bugun Xitoy O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, yaqin yillarda tashqi savdo aylanmasini 10 milliard dollargacha yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Bugungi kunda tomonlar o'rtasida yuqori darajadagi siyosiy ishonch saqlanib turibdi, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy, transport va qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlik izchil rivojlanib, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston XXR bilan strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatdorlik va manfaatlarni hisobga olish, teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlikni kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratadi.

Joriy yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga o'ttiz yil to'ldi, bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi ming yillik do'stona aloqalar tarixida yana bir muhim bosqichdir. Bu qisqa davr ichida zamonaviy davlatlararo munosabatlar har tomonlama strategik sheriklik darajasigacha ko'tarildi, davlatlar deyarli barcha sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishdi.

Bularning barchasi Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szin Pin tashabbusi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan Markaziy Osiyo va Xitoy davlat rahbarlarining videoanjuman shaklidagi uchrashuvda o'z aksini topdi.

Uchrashuvda ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida xalqaro jamoatchilik e'tiborini tortgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

To'siqlarsiz savdoni ta'minlash, umumiy savdo kooperatsiyasi va mahalliyashtirish makonini shakllantirishga qaratilgan "Xitoy – Markaziy Osiyo" iqtisodiy muloqoti yangi strategiyasini ishlab chiqish taklifini alohida ta'kidlash joiz. Bizningcha, mintaqamiz korxonalar uchun bu o'rnatilgan quvvatlardan oqilona foydalanish, bandlikning o'sishiga yordam beradigan mavjud resurslardan mukammal foydalanish samarasida, Xitoy ko'magida yuqori ishlab chiqarish

samaradorligiga erishish imkonini beruvchi samarali va zamonaviy usuldir. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga yordam beradi. Yirik korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida davlatlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, mintaqaviy ishlab chiqarishda mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, mahalliy xomashyo resurslari negizida import o'rnini bosuvchi va Markaziy Osiyo ichki bozorini zarur iste'mol mahsulotlari, dori vositalari, ishlab chiqarish-texnika maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar bilan to'ldirishni ta'minlovchi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish sanoat o'sishini ta'minlashning muhim va ajralmas omil bo'lib xizmat qiladi.

Amalga oshirishning ahamiyati shuningdek, jahon iqtisodiyotida ko'plab muammolarni keltirib chiqargan koronavirus pandemiyasi bilan ham bog'liqdir. Dunyo miqyosidagi ko'plab sonli sanoat korxonalari uchun chegaralarning yopilishi va logistika zanjirlarining buzilishi muhim elementlar va butlovchi buyumlarni yetkazib berishda uzilishlarga olib keldi. Natijada, ko'p mamlakatlar importa jiddiy e'tibor berishdan voz kechib, ichki mintaqaviy bozor uchun juda muhim bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yana bir muhim tashabbusi "Xitoy – Markaziy Osiyo" yo'nalishi bo'ylab yuk oqimining uzluksizligini ta'minlash va transmintaqaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish uchun tizimli yechimlar ishlab chiqarishning favqulodda muhimligi bo'ldi. Xususan, "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'lini qurish loyihasini amaliy ro'yobga chiqarishga joriy yildayoq kirishish taklif etildi. Ushbu yo'lak Yevropaga yuk tashishning eng qisqa yo'nalishiga aylanishi mumkin, demak, u mintaqamizdan Transkavkaz yo'lagi orqali Sharqiy Yevropaga yuk tashish imkonini beradi.

Shu bois, barcha tomonlar bu loyihaga katta qiziqish bildirishmoqda. Masalan, O'zbekiston temir yo'l sohasi vakillari ushbu tashabbusni loyihalash, qurilish-montaj ishlarini rejalashtirishda faol ishtirok etishdi. Chunki bu hudud Angren-Pop yo'nalishiga o'xshaydi, bu yerda ko'plab sonli muhandislik inshootlari, tunnellar va ko'priklar barpo etilishi kerak bo'ladi.

Ekspertlarning fikricha, “Xitoy – Qirg‘iziston –O‘zbekiston” temir yo‘li Ikkinchi kontinental transport ko‘prigining janubiy yo‘lagini ochibgina qolmay, uchta mamlakat ishlab chiqaruvchilari uchun yangi bozorlarni tashkil etish imkonini ham beradi.

Loyihaning dastlabki parametrlariga ko‘ra, Sharqiy Osiyodan Janubiy Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlarigacha bo‘lgan masofa 900 kilometr ga, yuklarni yetkazib berish muddati esa, 7-8 sutkaga qisqaradi. Bundan tashqari, qurilish Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport infratuzilmasini rivojlantiradi, ularning Fors ko‘rfazi va Tinch okeani portlariga qulay chiqishini ta‘minlaydi, mintaqa mamlakatlarining tabiiy resurslarni o‘zlashtirishi va foydalanishini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Prezidentining navbatdagi tashabbusi pandemiya davrida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan tez o‘tib borayotgan ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha yaqin hamkorlik qilish va avvaldan qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish strategik zarurati bo‘ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston uchun ham agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, sho‘rlangan va sho‘rxok yerlarda ekinlar yetishtirish, shahar va qishloq o‘rtasida ishlab chiqarish zanjirlarini yo‘lga qo‘yishda Xitoy tajribasi va ushbu mamlakat bilan hamkorlik qilish katta qiziqish uyg‘otadi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi Xitoyda 300 million nafardan ortiq fermerlarni ish bilan ta‘minlagan muhim sohadir. Bu mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi, ularni import qilish bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Aynan shu bois, XXR innovatsion va agrar texnologiyalarni agrar sohaga faol joriy etgan holda, ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha yetakchi bo‘ldi. Garchi Xitoyda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lsada, uning umumiy maydonining atigi 10 foizigagina ishlov berish mumkin. Xitoy kompaniyalari qishloq xo‘jaligidagi jarayonlarni raqamlashtirish uchun turli dasturlar va ilovalar ishlab chiqishmoqda. Butun Xitoy bo‘ylab zamonaviy qishloq xo‘jaligi sanoat parklari tashkil qilinmoqda. Tomchilab sug‘orish, aqlli o‘lchash, hosildorlikni taqsimlash, zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish va yer

tarkibini o'rganish kabi innovatsiyalar inson mehnatini kamaytirish imkonini bermoqda.

Shavkat Mirziyoyev uchrashuv chog'ida kambag'allikni qisqartirishni aholi farovonligini ta'minlashning eng muhim sharti deb atab, IT-parklar negizida qo'shma "Intellektual Ipak yo'li" platformasini yaratish, muqobil energetika sohasida investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni jadallashtirish, shuningdek, yuqumli kassallklarga qarshi kurashish kabi yo'nalishlarga ham to'xtalib o'tdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, o'tgan 30 yilda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik munosabatlar jadal va barqaror tus oldi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar Ipak yo'lining Iqtisodiy makonini barpo etish tashabbusi doirasidagi muhim vazifani hal etish, ya'ni savdo va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy iqtisodiyotlarining bir-birini to'ldirib turuvchi ustunliklarini hisobga olgan holda, ushbu imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish bo'yicha umumiy ishlarga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davlat va Huquq nazaryasi
2. Dunyo siyosiy jamiyati
3. <https://WWW.gazeta.uz>